



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BARKAMOL INSON KONSEPSIYASI VA UNI ZAMONAVIY TA'LIMGGA INTEGRATSIYA QILISH

Shodmonova Feruza Rizoyevna

Buxoro innovatsiyalar universiteti

2-kurs magistrani

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qadimgi Sharq mutafakkirlarining barkamol inson haqidagi qarashlari, ushbu konsepsiyaning asosiy mezonlari, falsafiy, axloqiy va pedagogik talqinlari o'rganiladi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy kabi allomalarning fikrlariga ko'ra barkamol inson — bu aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan yetuk, ilmga chanqoq, jamiyatga foydali shaxsdir. Maqolada ushbu konsepsiyaning zamonaviy ta'lim tamoyillari, jumladan, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilganlik, uzluksiz ta'lim tizimiga uyg'unligi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, barkamol inson g'oyasi ning o'quv dasturlari, dars mazmuni, tarbiyaviy faoliyat va o'qitish metodikasiga integratsiyalash imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar. *Barkamol inson, Sharq mutafakkirlari, pedagogik meros, ma'naviy tarbiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, axloqiy yetuklik, ilmga chanqoqlik, integratsiya, uzluksiz rivojlanish.*

Har bir jamiyatning maqsadi - barkamol, yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy boy, jamiyatga foyda keltira oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Ta'lim tizimi aynan shu maqsad sari yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Barkamol inson g'oyasi bugungi ta'lim siyosatida, pedagogik kontsepsiyalarda va o'quv dasturlarida yetakchi o'rin tutadi. Bu tushuncha o'z ildizlarini qadimgi Sharq tafakkuridan oladi.

Sharq mutafakkirlari barkamol insonni jamiyatning asosiy bo'g'ini deb bilganlar. Forobiy uni «fazilatli shaxs», Ibn Sino - «aqli va odobli inson», Navoiy esa - «ilm, axloq va kamtarlik sohibi» sifatida talqin etgan. Bunday inson nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham kamolot sari yetaklaydi.

Maqolada ushbu barkamol inson konsepsiyasining tarixiy-mazmuniy mohiyati ochib beriladi va uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Asosiy maqsad - pedagogik amaliyotda bu konsepsiyani metodik jihatdan qanday integratsiyalash mumkinligini aniqlashdir.

Sharq falsafasida barkamol inson tushunchasi asosiy markaziy mavzulardan biri sifatida namoyon bo'lgan. Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida shunday insonlarni jamiyatni yuksaltiruvchi kuch sifatida ko'rsatadi. Uning nazarida bunday shaxs - bilimli, aqliy yetuk, axloqiy pok, jamiyat oldida mas'uliyatli bo'lishi lozim. Barkamol inson fazilatlarida - adolat, shijoat, tafakkur, murosaliylik, mas'uliyat va mehnatsevarlik sifatlarida ifodalanadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ibn Sino esa insonning shakllanishida ta’lim va tarbiyaning roliga urg‘u bergan. U «Donishnoma» asarida ilm olishga intilish, yaxshi axloqqa ega bo‘lish, sog‘lom tan va sog‘lom aqlni uyg‘unlashtirishni barkamol insonning asosiy belgilari deb ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy esa bu g‘oyani badiiy-estetik doirada o‘z ifodasini topgan shaklda yoritgan. Unga ko‘ra, ilmga chanqoq, mehribon, odobli, adolatli va kamtarlikni o‘zida mujassam etgan inson - barkamol shaxsdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan pedagogik siyosat hujjatlari, xususan “Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim” kontsepsiyasi, “Milliy ta’lim dasturi”, “Ma’naviyat dasturi”da ham barkamol inson konsepsiyasi muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, xalqaro hujjatlar, xususan UNESCOning “Education for Sustainable Development Goals” hujjatida ham zamonaviy barkamol shaxs - kompetensiyaviy, ma’naviy-axloqiy jihatdan barqaror rivojlanishga tayyor shaxs sifatida belgilanadi.

Biroq, mavjud ta’lim metodikasi va dasturlarida ushbu tushuncha ko‘proq nazariy shaklda mavjud. Uni darsliklarga, o‘quv jarayoniga, tarbiyaviy ishlar tizimiga to‘laqonli integratsiyalash metodik yondashuvlar talab qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, Sharq mutafakkirlarining barkamol inson haqidagi qarashlari nafaqat zamonaviy ta’lim maqsadlariga mos, balki ular asos bo‘la oladi. Biroq bu g‘oyalarni amaliyotga joriy etish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim:

O‘quv dasturlarini barkamol inson modeliga mos kompetensiyalarga yo‘naltirish.

Tarbiyaviy ishlar tizimida - shaxsiy rivojlanish rejalari, maqsadli treninglar tashkil qilish. Har bir fanga “barkamol inson” komponentini kiritish.

O‘qituvchilarni qadimiy pedagogik meros asosida qayta tayyorlash.

Badiiy va tarixiy manbalarni ta’lim vositasi sifatida qayta metodik talqinda ishlatish.

Sharq mutafakkirlari ilgari surgan barkamol inson konsepsiyasi - bu faqat tarixiy-falsafiy tushuncha emas, balki zamonaviy ta’limning metodik negiziga aylanishi lozim bo‘lgan universal g‘oyadir. Aqliy, axloqiy, jismoniy va ijtimoiy kamolotga intiluvchi shaxsni tarbiyalash - bugungi pedagogikaning asosiy vazifasidir. Mazkur konsepsiyani ta’lim tizimiga integratsiya qilish orqali barqaror rivojlanishga tayyor, insonparvar, ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar shakllanishi ta’minlanadi.

Ta’lim siyosatida barkamol inson modeliga asoslangan pedagogik yondashuvlarni kuchaytirish kerak.

O‘quv dasturlarida qadimiy g‘oyalar asosida integratsiyalashgan modullar joriy etilishi lozim.

Tarbiya tizimi “barkamollik indikatorlari” asosida monitoring qilinishi tavsiya etiladi.

Badiiy va falsafiy meros asosida ma’naviyatni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik loyihalar ishlab chiqilsin.

Har bir o‘qituvchi zamonaviy barkamol shaxs modelini yetkazuvchi sifatida tayyorlansin.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Ibn Sino A. Donishnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1980.
3. Beruniy A. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968.
4. Nizomulmulk. Siyosatnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 1991.
5. Jomiy A. Bahoriston. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975.

